

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LUG‘ATINI TEXNALOGIYALAR
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

Axmedova Zuhra Mirzabekovna

Nizomiy nomidagi O‘zMPU p.f.n.prof.va b.

Sheravatova Muxlisa Aqar qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Univeritetining

Maxsus pedagogika va logopediya yo‘nalishi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.12.2025

Revised: 30.12.2025

Accepted: 31.12.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*Maktabgacha ta’lim, lug‘at
boyliqi, raqamli ta’lim,
texnologiyalar, AKT.*

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘atini rivojlantirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanishi tahlil qilinadi. Multimedia vositalari, audio-vizual materiallar, mobil ilovalar va AR texnologiyalarining lug‘at boyligini kengaytirishdagi samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning bolalarda so‘zlarni tez o‘zlashtirish, nutqiy faollik, eshituv-idrok va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi

Bolalar lug‘ati bolaning nutqiy rivojlanishi, tafakkuri, tushuncha doirasi va jamiyatda muloqotga kirishishida markaziy ahamiyatga ega bo‘lgan til unsuridir. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim davrida to‘g‘ri tanlangan va izchil boyitilgan lug‘at bolalarda nafaqat nutq madaniyatini, balki shaxsiy-ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Nutqni rivojlantirish hozirgi zamonda dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Yosh avlod nutqini shakllantirishda oila, o‘qituvchilar va tarbiyachi pedagoglarning ma’suliyati juda kattadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biri yozish, nutq va og‘zaki muloqotning rivojlanishi. Bolalarning lug‘atini boyitish, to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, nutqining ravon rivojlanishi uchun metodlardan to‘g‘ri foydalana olish juda muhimdir.

Nutqni rivojlantirish, jumladan, lug‘at boyligini boyitishda kattalarning nutqiy faoliyati va ularning bola bilan muloqoti muhim omil hisoblanadi. 1 yoshda kichkintoy 10–15 ta so‘zni faol biladi, 6 yoshga kelib esa uning faol lug‘ati 3-3,5 mingtaga yetadi. Bolada so‘z

boyligining shakllanishi soʻz yasash jarayonlari bilan chambarchas bogʻliqdir. Tilning leksik darajasi soʻz yasashning harakat va mexanizmlari natijasi boʻlgan leksik birliklar yigʻindisidir. Bolaning tafakkuri, nutqi rivojlanib borishi bilan bolaning lugʻat boyligi nafaqat boyibgina qolmay, balki takomillashib boradi. Shunday ekan, tarbiyachi bolalar lugʻatini boyitishda avvalo oʻzi nutq madaniyatiga rioya qilishi lozim. Tarbiyachining nutqi bolalarni diqqatini torta oladigan va tushuna oladigan tempda boʻlishi kerak. Mashgʻulot jarayonida bolalarni adabiy meʼyorlarga mos tilda soʻzlashishni oʻrgatishi lozim.

Maktabgacha yoshda bola shunday lugʻatga ega boʻlishi lozimki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olish, adabiyotni, televizion va radio eshittirishlarini tushunish imkonini bersin. Shuning uchun maktabgacha taʼlim pedagogikasi lugʻatni rivojlantirishga nutqni rivojlantirishning muxim vazifalaridan biri sifatida qaraydi.

Hozirgi kunda texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Bolalar yoshligidan smartfon, planshet va boshqa raqamli qurilmalar bilan oʻralgan muhitda ulgʻaymoqdalar. Bu esa ushbu texnologiyalardan taʼlimiy maqsadlarda foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Axborot texnologiyalarini maktabgacha taʼlimga kiritish lugʻat boyligini rivojlantirish jarayonini yangi darajaga olib chiqish imkonini beradi. Bu esa oʻz navbatida taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, mamlakatimizda taʼlim tizimiga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qarorlarida maktabgacha taʼlim tizimini moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarmogʻini kengaytirish, maktabgacha taʼlim tizimini qayta koʻrib chiqish va yanada takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan edi. Taʼlim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonunning asosiy gʻoyalarida oʻz aksini topgan. “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonunda uzluksiz taʼlim tizimining maktabgacha taʼlim va tarbiya tizimida bolalarni oʻquv fanlari boʻyicha muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularning bilim olishga boʻlgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va mehnat koʻnikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan maʼnaviy-axloqiy fazilatlarni, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan.

Maktabgacha taʼlim tizimida bolalarning lugʻat boyligini shakllantirish – ularning keyingi nutqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishining asosiy omillaridan biridir.

Soʻnggi yillarda taʼlim jarayonida raqamli resurslar, interaktiv oʻyinlar, multimedia vositalari, audio-vizual materiallar, mobil ilovalar, virtual hamda AR texnologiyalaridan foydalanish kuchaymoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat mashgʻulotlarni qiziqarli qiladi, balki bolaning faol nutqini, eshitish diqqatini va tasavvurini kengaytiradi.

Psixolog olimlar – L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya, D.B. Elkonin – bolada lug‘at rivoji sensor idrok, faol muloqot, predmet-amaliy faoliyat va takroriy eshituv orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Maktabgacha yoshda so‘zlar ko‘proq ko‘rgazmali asosda o‘zlashtiriladi. Shu sababli AKT vositalari qo‘llanilganda bola:

- ko‘radi;
- eshitadi;
- o‘zi aytib takrorlaydi;
- interaktiv harakatlar orqali mustahkamlaydi.

Bu esa “ko‘pkanalli o‘rganish” (multisensor learning) mexanizmini faol-lashtiradi. Lug‘at boyligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish:

1.Multimedia (video, animatsiya, slaydlar, interaktiv rasmlar) bolalarda so‘zlarning ma’nosini tez va ongli qabul qilishga yordam beradi. Foydali imkoniyatlari: so‘zlar vizual obraz bilan bog‘lanadi, animatsiya orqali harakat bildiruvchi fe‘llar oson o‘rganiladi, rasm–so‘z–gap tamoyili qo‘llaniladi.

2.Audio texnologiyalar: audio ertaklar, audio kartochkalar, nutq tovushlarini farqlashga qaratilgan logopedik audiolar bolalarda eshituv-idrokni kuchaytiradi.

Audio texnologiyalar yordam beradi: talaffuzni yaxshilashga, eshituv xotirasini rivojlantirishga, so‘zlar ohangini to‘g‘ri eshitishga.

3.Mobil ilovalar va ta’limiy platformalar: Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan ko‘plab ilovalar mavjud.

“Lingokids”, “Khan Academy Kids”, “Bilimdon Kids (UZ)”, “Starfall ABC”, va boshqalar. Bular orqali bola avtomatik tarzda rasm va so‘z moslashtirish, gap tuzish, mini o‘yinlar orqali so‘z mustahkamlash, tovushni eshitib tanish, kichik hikoyalar yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Xulosa. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni an’anaviy ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirish maktabgacha ta’lim tizimining sifatini oshiradi, bolalarning nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ularning keyingi o‘quv bosqichlariga puxta tayyorgarlik bilan kirib borishiga zamin yaratadi. Bolalar lug‘atini boyitish bo‘yicha kompleks yondashuv — pedagogning nutqiy namunasi, ota-onaning faol ishtiroki va zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish — yuqori samaradorlikka erishishning eng muhim shartidir. Psixolog olimlar ta’kidlaganidek, maktabgacha yoshda nutqning rivojlanishi muloqot, idrok va amaliy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois AKT vositalarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish bolalarning nutqiy faolligini oshirish, eshituv xotirasini rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish uchun samarali imkoniyat yaratadi.

=====

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.F.R. Qodirova , R.M. Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. 2006-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent. 2019-yil 8-may , PQ-4312-son.
3. L.S. Vygotskiy. Muloqot va nutq rivoji. – Moskva,1982.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi “ilk qadam” dasturi. – Toshkent, 2020-yil.